



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA PAST O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH

**Xoldaraliyeva  
 Zarnigor  
 To'ranazar qizi**

*Qo'qon Universiteti  
 Ta'lim fakulteti BT 1-21 guruh talabasi  
 zarnigorxoldaraliyeva@gmail.com*

**Abstract**

Ushbu maqolada past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish uchun samarali strategiyalar, individual yondashuvlar va motivatsiyani qo'llab-quvvatlash metodlari tahlil qilinadi. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga nisbatan motivatsiyani oshirish, moslashtirilgan o'quv dasturlari va o'quv materiallarini joriy qilish, shuningdek, o'quvchi-o'qituvchi hamkorligini kuchaytirish masalalariga e'tibor qaratiladi.

**Keywords :** Motivatsiya, individual yondashuv, turli metod, ko'zgazma, o'quvchi, dars, o'qitish uslubi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'lim sohasini rivojlantirishda past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga alohida e'tibor qaratish zarurligini bir necha bor ta'kidlagan. U har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarning ehtiyojlarini individual ravishda o'r ganib, har bir o'quvchining imkoniyatlariga qarab yangi metodik yondashuvlarni qo'llash muhimligini aytgan. Shu yo'l bilan o'qituvchilar past o'zlashtiruvchio'quvchilarga tengdoshlariga yetib olish imkonini yaratishlari lozimligini qayd etgan. Bundan tashqari, Prezident qobiliyatli o'quvchilarni rag'batlantirish, ularning darslarga qiziqishini oshirish uchun ta'lim muhitini yaxshilashga e'tibor qaratish kerakligini ham takidlagan. Shu maqsadda mamlakatda raqamli maktablarni joriy etish va internetga ulanish darajasini oshirish kabi qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobida „O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan o'zgarishlar va ularning muhim jihatlarin xususan, ta'lim tizimida qoloq yoki past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun sharoitlar yaratish va ularni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berish masalasi Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida teng imkoniyatlar ta'minlanishi bilan bog'liq holda mamlakatni rivojlantirish, inson kapitalini mustahkamlash va ijtimoiy adolatni kuchaytirishga qaratilgan rejalarini o'z ichiga oladi”<sup>1</sup>. Ushbu asarda, ta'limning hamma qatlamlariga teng imkoniyatlar yaratish, xususan, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash masalasi davlat strategiyasining bir qismi sifatida keltirilgan. Past

<sup>1</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyev „Yangi O'zbekiston strategiyasi“ kitobidan

o‘zlashtirishuvchi o‘quvchi o‘quv fanlarni davlat ta’lim standartlarida belgilab qo‘yilgan darajada o‘zlashtira olmayotgan, bilim olishga ishtiyoqi pasayib ketgan vao‘ziga ishonchi yo’qolgan o‘quvchilardan biri bo‘ladi. Xo‘s, buning sabablari va muammo yechimi qanday bo‘ladi? Vaziyatni sabablari tahlili quyidagilarni keltirmoqda. O‘quvchilarning past o‘zlashtirishga quydagi holatlardan biri yoki bir nechtasi bo‘lishi mumkin.

O‘quv materialining umuman yoki qisman tushunmasligi.

O‘qituvchining mahorati yetishmasligi.

O‘quvchininig sinfda o‘zini juda yomon his qilishi.

O‘rtoqlari oldida kansitilishi.

Tengdoshlari orasida yupin kiyinishi va nochorligi tufayli o‘zini-o‘zi kansitishi.

O‘quvchini o‘yinqaroqligi dankasaligi va xayolparastligi tufayli diqqatni jamlay olmasligi.

O‘quvchi davomatini pastligi.

O‘qituvchi tomonidan past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar o‘z vaqtida aniqlanmasligi va e’tabor qaratilmaganligi.

O‘qituvchi past o‘zlashtiruvchi o‘quvchi hamda uning ota onasi bilan muntazam, izchil reja asosida ish olib bormasligi.

O‘quvchining oilaviy ijtimoiy muhtidagi salbiy omillar.

O‘quvchining sog’ligi va psixikasi bilan bog’liq holatlar.

O‘quvchining dars qilishi, o‘zlashtirishi va mustaqil ishslash uchun shart -sharoitni yo‘qligi.

Ota-onasining doimiy nazorati va yordami yetishmasligi.

O‘quvchi ota-onasidan uzoqdaligi.

Ota-onsa va o‘quvchi o‘rtasida aloqa yo‘qligi, bor bo‘lsada ota-onsa e’tiborsizligi.

O‘quvchi tarbiyasi birovlar qo‘lida mutloqa nazoratsizligi tufayli va boshqalar.<sup>2</sup>

O‘zlashtiruvchi o‘quvchilar haqida gap ketganda, bu toifa o‘quvchilar odatda ta’lim olishda ma’lum qiyinchiliklarga duch keladigan, lekin bu qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun qo‘srimcha yordam va qo’llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarni nazarda tutadi. o‘zlashtirish darajasi past bo‘lishi turli sabablarga ko‘ra yuzaga kelishi mumkin:

1. Motivatsiya yetishmasligi: o‘quvchi o‘z fani yoki ta’lim jarayoniga nisbatan yetarlicha qiziqish bildirmasligi mumkin.

2. Aqliy yoki emotsiyal qiyinchiliklar: Ruhiy salomatlik, stress, yoki o‘ziga ishonchning pastligi ta’limda salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

3. Ta’lim tizimining muvofiq emasligi: Ba’zi o‘quvchilar an’anaviy ta’lim usullari bilan oson o‘zlashtira olmasligi, qo‘srimcha moslashuvni talab qilishi mumkin.

4. Oila va ijtimoiy omillar: Oila muammolari yoki noto‘g’ri ijtimoiy muhit o‘quvchilarning diqqatini ta’limdan chalg’itishi mumkin.

Bunday o‘quvchilarga yordam berish uchun o‘qituvchilar individual yondashuv va moslashtirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqishlari kerak. Qo‘srimcha darslar,

<sup>2</sup> file:///C:/Users/User.AD/Downloads/105-108+Qoloq+O‘quvchi+Yoki+Past+O‘zlashtiruvchining+Sabablari.pdf

interaktiv va ijodiy usullar bilan ishlash, hamda motivatsiyani oshirish uchun rag'batlantiruvchi dasturlar samarali bo'lishi mumkin.

Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda ularga individual yondashuv va moslashtirilgan ta'lif metodlarini qo'llash muhimdir. Mana bir nechta samarali usullar:

1. Individual yondashuv: Har biro'quvchining qobiliyati vao'zlashtirish darajasi farq qiladi. Shuning uchun, har bir o'quvchiga alohida reja tuzish va darsni uning o'zlashtirish qobiliyatiga moslashtirish kerak.

2. Ko'proq tushuntirish va qo'llab-quvvatlash: Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga qo'shimcha vaqt ajratish va materialni qayta-qayta tushuntirish zarur. Bu ularga materialni to'liq anglash imkonini beradi.

3. Differensial o'qitish: Darsni tashkil etishda o'quvchilarning bilim darajasi, o'qitish usullari va topshiriqlarni mos ravishda ajratish muhim. Osonroq topshiriqlar bilan boshlash va qiyinchilik darajasini asta-sekin oshirish yordam beradi.

4. Motivatsiya: o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish va ularni motivatsiya qilish ularga qo'shimcha ishonch beradi. Ularning hatto kichik yutuqlari ham taqdirlanishi kerak.

5. Qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish: o'quvchilarning o'zlarini erkin va qulay his qilishlari uchun stresssiz o'quv muhitini yaratish zarur. Bu ularga yanada samarali o'qish imkonini beradi.

6. Vizual va interaktiv usullardan foydalanish: o'qitish jarayonida turli vizual va interaktiv materiallardan foydalanish o'zlashtirishni yaxshilaydi. Masalan, diagrammalar, videolar, o'yinlar kabi vositalar materialni yanada qiziqarli va tushunarli qiladi.<sup>3</sup> Talim-tarbiya jarayoni markazidao'quvchi shaxsi turar ekan, o'qituvchi bolaning aqliy imkoniyati, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olishi zarur. 40-45 daqiqalik dars faqat faol o'quvchilarni qondira oladi. Har bir o'quvchining individual-psixik taraqqiyot yo'llarini chuqur bilish, bola qalbiga yo'l topa olish uchun boshlang'ich sinf fanlariga fanga oid qo'shimcha darslar tashkil qilish samarali natija beradi. Fanga oid qo'shimcha darso'quvchilar uchun quyidagicha tashkil qilinadi:

1. O'quvchining qiziqishiga qarab.
2. Bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida.
3. Bo'sh o'zlashtiruvchi bolalar uchun.
4. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash maqsadida.

O'quvchining qiziqishiga qarab qo'shimcha dars tashkil etish, bu – fano'garaklariga a'zo qilish bo'lib, bunda ular bilimlarini mustahkamlab, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oladi. Bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida tashkil qilingan qo'shimcha darslarda test natijalaridan kelib chiqqan holda ish olib boriladi. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qo'shimcha darslar tashkil qilishdan oldin, bo'sho'zlashtirish sababio'r ganiladi. Dars qoldirish, ma'lumotlarni qabul qilishni istamasligi, o'yin qaroqligi, oilaviy ahvoli kabilalar. Bundayo'quvchilar bilan haftada 2 kun 1 soatdan vaqt ajratib, boshdan boshlamoq kerak. Iqtidorli o'quvchilar uchun qo'shimcha darslar tashkillash maxsus reja va mukammal dastur talab qiladi. Iqtidorli o'quvchilarni ijodiy ishlarga yo'naltirish, ijod namunalari ko'rgazmasini tashkil qilish,

<sup>3</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zlashtirishi-past-o-quvchilar-bilan-ishlash/viewer>

ularni monitoring natijalari asosida rag'batlantirib borish zarur.<sup>4</sup> Boshlang'ich ta'limgarayonida bo'sh o'zlashtirishni vujudga keltiruvchi omillar, o'zlashtirmovchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish ta'limgarayonida o'quvchi o'zlashtirmasligining oldini olishga yo'naltirilgan chora – tadbirlar tizimini ishlab chiqish imkonini beradi. Bo'sh o'zlashtirishning oldini olish bo'yicha tadbirlar tizimi har biro'quvchi rea lo'quv imkoniyatlarining barcha asosiy tarkibiy qismlarini kompleks rivojlantirishga, ya'ni shaxsnинг intellektual, irodaviy, hissiy sohalarini bir vaqtida rivojlantirishga, uning ta'limgarayonida tarbiyasini ta'minlash, o'qishga va jamoaga ijobjiy munosabatini rivojlantirish, uning ishga qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'quvchi real o'quv imkoniyatlaridan birining shakllanishi muhimligini yetarlicha baholamaslik, bu tizimning yaxlitligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada bo'sh o'zlashtirishning muvafaqqiyatli oldini olishga olib kelmaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, past o'zlashtiruvchiono'quvchilar bilan ishslashda ularga individual yondashish kerak. Bunday o'quvchilar uchun darslarni qiziqarli vaularni ehtiyojlariga moslashtirilgano'quv materiallarni o'qituvchi ishlab chiqishi zarur. Shuningdek, psixologik qo'llab-quvvatlash, rag'batlantiruvchi usullarni qo'llash va ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda ishslash ham o'zlashtirishni yaxshilashda yordam beradi. O'qituvchi buo'quvchilarga ishonch bildirish, ular muvaffaqiyatiga e'tibor qaratish orqali darsda faol ishtirok etishlarini ta'minlashi lozim. Natijada, bunday yondashuv o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, ularning o'zlashtirish darajasini yaxshilaydi va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev „Yangi O'zbekiston strategiyasi” kitobidan
2. <file:///C:/Users/User.AD.054/Downloads/105-108+Qoloq+O'quvchi+Yoki+Past+O'zlashtiruvchining+Sabablari.pdf>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zlashtirishi-past-o-quvchilar-bilan-ishlash/viewer>
4. <file:///C:/Users/User.AD.054/Downloads/Rasulova+Roxat+Rashidovna.pdf>

<sup>4</sup> <file:///C:/Users/User.AD.054/Downloads/Rasulova+Roxat+Rashidovna.pdf>